

O'ZBEKISTON VA GERMANIYA O'RTASIDAGI IQTISODIY HAMKORLIK
ISTIQBOLLARI

Saidova Gulshoda Ro'zmatovna

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

Tarix yo'nalishi 2 kurs magistranti.

e-mail: saidova.j@aifuuniversiteti.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18287893>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning hozirgi holati hamda kelgusidagi rivojlanish istiqbollari tahlil qilingan.

Shuningdek, Germaniyaning ilg'or texnologiyalari va tajribasini O'zbekiston iqtisodiyotiga tatbiq etish imkoniyatlari, hamkorlikni kengaytirish uchun zarur bo'lgan huquqiy va institutsional shart-sharoitlar tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Germaniya, iqtisodiy hamkorlik, investitsiya, savdo, texnologiya, istiqbol.

Аннотация. В статье анализируются текущее состояние и перспективы развития экономического сотрудничества между Узбекистаном и Германией, возможности внедрения передовых немецких технологий и опыта в экономику Узбекистана, а также правовые и институциональные условия, необходимые для расширения сотрудничества.

Ключевые слова: Узбекистан, Германия, экономическое сотрудничество, инвестиции, торговля, технологии, перспективы.

Abstract. This article analyzes the current state and prospects for future development of economic cooperation between Uzbekistan and Germany. It also analyzes the possibilities of introducing advanced German technologies and experience into the Uzbek economy, as well as the legal and institutional conditions necessary for expanding cooperation.

Keywords: Uzbekistan, Germany, economic cooperation, investment, trade, technology, prospects.

Bugungi kun xalqaro munosabatlar tizimida munosib o'rinni saqlab qolish va jahon hamjamiyatiga to'liq integratsiyalashishga intilish deyarli barcha davlatlar faoliyatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan, O'zbekiston uchun ham tashqi siyosiy va iqtisodiy munosabatlarni izchil rivojlantirish, xalqaro maydonda o'z nufuzini mustahkamlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Ayniqsa, mamlakatning iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishida jahon siyosatida katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan, iqtisodiy salohiyati yuksak bo'lgan Yevropa davlatlari, jumladan Germaniya bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish alohida o'rin tutadi [3]. Bu yo'nalishdagi hamkorlik O'zbekistonning barqaror taraqqiyoti, ilg'or texnologiyalar va innovatsiyalardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish bilan birga, mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini yanada mustahkamlaydi.

O'zbekiston Germaniya bilan uzoq muddatli va ko'p qirrali munosabatlarni rivojlantirishga, o'zaro ishonch va teng huquqlilikka asoslangan, yuqori darajadagi muloqotni saqlab qolishga alohida ahamiyat berib kelmoqda [1].

O'zbekiston Respublikasi va Germaniya Federativ Respublikasi o'rtasidagi diplomatik munosabatlar 1992-yilda o'rnatilgan bo'lib, bugungi kunda ular strategik sheriklik darajasiga yetgan. Germaniya Yevropa Ittifoqidagi eng yirik iqtisodiy hamkorlardan biri sifatida O'zbekiston iqtisodiyotining modernizatsiyasi, texnologik yangilanishi va eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynamoqda. So'nggi yillarda ikki davlat o'rtasida savdo hajmi ortib bormoqda, Germaniya kompaniyalari O'zbekistondagi energetika, qishloq xo'jaligi, kimyo va mashinasozlik sohalarida faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston va Germaniya o'rtasida turli darajadagi, jumladan, oliy darajadagi siyosiy muloqot yo'lga qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning Germaniyaga rasmiy tashriflari (1993, 1995 va 2001-yillar) ikki davlat munosabatlarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etgan. Shuningdek, Germaniya Prezidenti R. Gersogning O'zbekistonga davlat tashrifi (1995-yil) hamda Germaniya Federal Kansleri G. Shryoderning rasmiy tashrifi (2002-yil) ikki mamlakat o'rtasidagi siyosiy muloqotni yangi bosqichga ko'targan [2:115]. Shu bilan birga, ikki davlat Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida doimiy siyosiy maslahatlashuvlar tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, hozirga qadar shunday muloqotlarning 14 ta raundi muvaffaqiyatli o'tkazilgan. Bu esa O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi siyosiy ishonch va hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil yanvar oyida Germaniya Federativ Respublikasiga amalga oshirgan rasmiy tashrifi, shuningdek, Germaniya Federal Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayyerning 2019-yil may oyida O'zbekistonga davlat tashrifi ikki mamlakat o'rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy hamda gumanitar-madaniy munosabatlarni rivojlantirishda yangi bosqichni boshlab berdi [5].

Germaniya O'zbekistonning eng yirik investitsiyaviy va savdo hamkorlari o'ntaligiga kiradi. Mamlakat bozorida Germaniyaning "MAN", "Claas", "Knauf", "GP Papenburg AG", "Deutsche Kabel", "Siemens Energy", "Linde", "Henkel" kabi yetakchi kompaniyalari muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda [5]. Ushbu kompaniyalar nafaqat ishlab chiqarish sohasida, balki zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, kadrlar salohiyatini oshirish va ishlab chiqarish infratuzilmasini takomillashtirishda ham faol ishtirok etmoqda.

Germaniya investitsiyalari O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari — energetika, tog'-kon sanoati, kimyo va qurilish materiallari ishlab chiqarish, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi, transport hamda xizmat ko'rsatish sohalarida izchil o'sib bormoqda. Bu holat ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning uzoq muddatli va barqaror xarakteriga ishora qiladi. Hozirgi vaqtda O'zbekiston hududida Germaniya kapitali ishtirokida 221 ta qo'shma korxona faoliyat ko'rsatmoqda, shuningdek, 31 ta Germaniya kompaniyasining vakolatxonalari rasman akkreditatsiyadan o'tgan. Bu ko'rsatkichlar Germaniya biznesining O'zbekiston bozoriga bo'lgan ishonchini va ikki tomonlama hamkorlikning yuqori salohiyatini namoyon etmoqda [5].

Savdo-iqtisodiy sohadagi o'zaro aloqalarning muhim institutsional mexanizmi sifatida Savdo va investitsiyalar bo'yicha hukumatlararo ishchi guruh faoliyat yuritmoqda. Uning muntazam ravishda o'tkaziladigan uchrashuvlari va muzokaralari iqtisodiy sheriklikni kengaytirish, yangi loyihalarni amalga oshirish hamda ikki mamlakat ishbilarmon doiralari o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

2015-yilda tashkil etilgan va ikki mamlakatning yirik kompaniyalarini birlashtirgan “O‘zbekiston–Germaniya ishbilarmonlar kengashi” nemis ishbilarmon doiralari hamda O‘zbekiston hukumati o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri va ochiq muloqot uchun muhim platforma sifatida faoliyat ko‘rsatmoqda. Mazkur kengashning o‘ziga xos jihati shundaki, u O‘zbekistondagi yagona “G2B (Government to Business)” [5] formatidagi hamkorlik maydoni hisoblanadi.

O‘zbekiston va Germaniya o‘rtasidagi o‘zaro savdo munosabatlarini yanada rivojlantirish ikki davlat uchun ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib kelmoqda. So‘nggi yillarda ikki mamlakat o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi izchil o‘sib, doimiy ravishda 1 milliard AQSH dollaridan oshib bormoqda. O‘zbekistondan Germaniyaga eksport qilinayotgan mahsulotlar turi tobora kengaymoqda. Bugungi kunda Germaniya bozoriga to‘qimachilik va oziq-ovqat mahsulotlari, xizmatlar hamda boshqa turdagi sanoat tovarlari yetkazib berilmoqda.

O‘zbekiston, o‘z navbatida, Germaniyadan mexanik asbob-uskunalar, transport vositalari va ularning ehtiyot qismlari, farmatsevtika mahsulotlari, kimyo sanoati mahsulotlari va turli xizmat turlarini import qilmoqda. Bu esa ikki mamlakat iqtisodiy munosabatlarining o‘zaro manfaatli va to‘ldiruvchi xususiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Germaniya bugungi kunda O‘zbekistonning Yevropadagi asosiy iqtisodiy hamkorlaridan biri hisoblanadi. Ikki davlat o‘rtasidagi savdo aylanmasi izchil o‘sish tendensiyasini namoyon etmoqda. 2017-yil yakunlariga ko‘ra, o‘zaro savdo hajmi 613,2 million AQSH dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2018-yilning yanvar–noyabr oylari mobaynida ushbu ko‘rsatkich 712,1 million AQSH dollariga yetgan[5]. O‘zbekiston va Germaniya o‘rtasidagi savdo aylanmasi yildan-yilga ortib bormoqda. Rasmiy statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 2023-yilda ikki davlat o‘rtasidagi savdo hajmi 1 milliard AQSh dollaridan oshdi. O‘zbekiston asosan Germaniyaga paxta tolasi, kimyoviy mahsulotlar, oziq-ovqat va to‘qimachilik mahsulotlarini eksport qiladi. Shu bilan birga, Germaniyadan O‘zbekistonga mashinasozlik uskunalari, farmatsevtika mahsulotlari, avtomobil ehtiyot qismlari va sanoat texnologiyalari import qilinadi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston va Germaniya o‘rtasidagi moliyaviy va texnik hamkorlikning umumiy hajmi 329,9 million yevroga yetgani ikki mamlakat iqtisodiy munosabatlarining salmoqli ekanini ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkichlar Germaniyaning O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va infratuzilmani rivojlantirish jarayonlaridagi ishtiroki tobora kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, Germaniya O‘zbekistonning Yevropadagi eng muhim iqtisodiy va investitsiyaviy sheriklaridan biri sifatida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, sanoatni modernizatsiya qilish, yuqori texnologiyalarni joriy etish hamda kadrlar salohiyatini oshirish jarayonlarida faol ishtirok etmoqda.

Ikki davlat o‘rtasidagi savdo aylanmasi, sarmoyaviy loyihalar va qo‘shma korxonalar sonining ortib borishi o‘zaro manfaatli hamkorlikning amaldagi natijalarini ifodalaydi. Shu bilan birga, ishbilarmonlar kengashi, hukumatlararo ishchi guruhlar va ta‘lim-ilmiy hamkorlik platformalari iqtisodiy munosabatlarning institutsional asosini mustahkamlab bormoqda.

Kelgusida “yashil iqtisodiyot”, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, raqamli texnologiyalar, innovatsiyalar va ta‘lim sohalarida hamkorlikni chuqurlashtirish ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarni yangi strategik bosqichga olib chiqishi shubhasiz.

Shunday qilib, O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi munosabatlar nafaqat ikki tomonning milliy manfaatlariga, balki Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlik, innovatsion rivojlanish va iqtisodiy integratsiya jarayonlariga ham xizmat qiluvchi muhim omil sifatida ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2019. – 400-b.
2. Қ.Жўраев. Ўзбекистон Республикаси ва жаҳон ҳамжамияти. Иштимой-сиёсий нашр. Илмий-оммабоп мақолалар. –Т.: “Oltin meros press”, 2024.456 ,бет.
3. Халқ сўзи. – 2016. – 9 сентябрь.
4. Янги Ўзбекистон. 2024 йил 16 сентябрь.
5. <https://gk-usbekistan.de/uz/%D0%B4%D0%B2%D1%83%D1%81%D>.